

**Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Muzafarovich  
Boboyev ishtirokida qurilish, ta'mirlash, obodonlashtirish va bunyodkorlik  
sohasida amalga oshirilayotgan ishlarga bag'ishlangan  
MATBUOT ANJUMANI**

**Assalomu alaykum, qadrli jurnalistlar va ijtimoiy tarmoq faollari!**

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p muhokama qilinayotgan masalalardan biri qurilish, obodonchilik va bunyodkorlik sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar haqida sizlarga, sizlar orqali butun Samarqand viloyati aholisiga ma’lumot berish, bu boradagi savollaringizga javob berish uchun ushbu matbuot anjumanini tashkil etdik.

Bugungi matbuot anjumanida yuqorida tilga olingan sohalarning mas’ullari ham ishtirok etmoqda.

Keyingi yillarda nafaqat Samarqand, butun mamlakatimizda keng ko‘lamda qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda, aholi yashash manzillari, dam olish maskanlari, sayyoqlik ob’ektlari, ta’lim va tibbiyot muassasalari qurilmoqda, Samarqand shahri, Urgut, Bulung‘ur, Toyloq tumanlarida “Yangi O‘zbekiston” massivlari qad rostlayapti.

“Shirin” ishbilarmonlik markazi va turar-joylar majmuasini barpo etish uchun Zarafshon daryosi bo‘yida 665 hektar yer maydoni ajratilgan. Mazkur loyiha turar-joylar, ma’muriy va biznes markazlari, ta’lim va tibbiyot muassasalari, ko‘ngilochar maskanlar, shuningdek, zamonaviy transport va muhandislik kommunikatsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Samarqandda zamonaviy ishbilarmonlik muhitini yaratishda, turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan ushbu megaloyiha doirasida zamonaviy me’moriy yechimlar va ilg‘or qurilish texnologiyalaridan foydalangan holda keng qamrovli bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi. Bu yerda anjumanlar saroyi, qator savdo majmualari, mehmonxonalar, ta’lim muassasalari, ishbilarmonlik markazlari, xizmatlar ko‘rsatish va turizm inshootlari, ma’muriy idoralar barpo etilishi ko‘zda tutilmoqda.

Bugungi kunda shaharchani barpo etish 4 ta bosqichga bo‘lingan bo‘lib, 1-bosqichda 100 hektar yer maydonidan 56 hektari 6 ta lotlarga bo‘lingan holda 8 mingdan iborat 90 ta uy-joylar qurilishi belgilangan. Shundan 13 hektari auksion savdosiga orqali sotilgan, shuningdek, 18 hektari auksion savdosiga kiritilgan.

Shahar qurilishi Samarqand mintaqasini rivojlantirishga qaratilgan urbanistik strategiyaning bir qismi bo‘lib, zamonaviy me’moriy yechimlar va ilg‘or qurilish texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Loyiha yuqori darajadagi energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.

Shaharchaning energiya ta’minoti 30 foizi quyosh panellari, 60 foizi suv va chiqindilarni qayta ishslash texnologiyalaridan foydalangan holda ta’minlanadi.

Shaharchada kogeneratsiya qurilmalari joriy etiladi. Ushbu tizim bir vaqtning o‘zida issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish imkonini beradi.

Hududda “aqli” suv ta’minoti, avtomatlashtirilgan energiya boshqaruvi va ekologik toza transport tizimlari joriy etiladi.

Ishbilarmonlik markazida tadbirkorlik va startaplarni qo‘llab-quvvatlash, biznes-inkubatorlar tashkil etiladi.

Aholi uchun esa ijtimoiy infratuzilma to‘liq yaratiladi: muktab, bolalar bog‘chasi, poliklinika, mahalla binolari, uchastka noziri punktlari quriladi.

Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasida joylashgan 4,7 hektar maydondagi Mahdumi A’zam ziyoratgohi Prezident tashabbusi bilan rekonstruksiya qilinadi. Hududda madaniy meros obidasi, masjid va dahma qabristoni mavjud. Ushbu ob’ektlar restavratsiya bo‘ladi. Rekonstruksiya ishlari jarayonida yangi binolar ham quriladi.

Xususan, avtoturargoh, masjidga qo‘srimcha ayvonlar barpo etiladi. Ta’mirdan so‘ng masjidda bir vaqtning o‘zida 1100 kishi namoz o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda ob’ektida qurilish va montaj ishlari boshlab yuborilgan.

Samarqand shahridagi 2,2 hektar hududdagi Imom Moturidiy majmuasida ham restavratsiya va rekonstruksiya ishlari boshlangan. Ziyoratgoh hududida 1500 o‘rinli masjid, kirish peshtoqi, ilmiy markaz, kutubxona, muzey va tashqi hududda avtoturargoh qurilishi rejalshtirilgan. Bundan tashqari, loyihamda 2 ta minora, ayvon va ayvonchalar ham ko‘zda tutilgan.

Chokardiza qabristonida joylashgan majmua ham rekonstruksiya qilinib, ziyorat markazi barpo etiladi. Majmua hududi jami 8,5 hektarni tashkil etadi. Hududda turar va noturar joylarni olish bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Samarqand shahridagi temir yo‘l orti qismida 3 mingga yaqin ma’nana eskirgan uy-joy o‘rnida renovatsiya loyihasi asosida 100 ming aholi uchun mo‘ljallangan ko‘p xonardonli uy-joylar massivi quriladi. Massiv 301 hektar maydonni egallab, shundan 141 hektarida turar-joylar quriladi. Massivda zamonaviy turar-joylar, ma’muriy markaz, xizmat ko‘rsatish binolari, aholi uchun madaniy dam olish maskanlari, xiyobon va saylgochlari hamda sanoat korxonalari ham barpo etiladi.

Bugungi kunda 1-bosqida 45 hektar yer maydoni tanlab olinib, 30 ta lotlarga bo‘lingan holda massiv qurilishini boshlash uchun 15 dan ortiq salohiyatli qurilish-pudrat tashkilotlari jalb qilingan. Tashabbuskor investorlar tomonidan mulkdorlar o‘rtasida muzokaralar olib borilmoqda.

Samarqand shahrining O‘zbekiston ko‘chasida joylashgan sobiq harbiy shifoxona (gospital) o‘rnida “Bolalar va yashil jamoat parki” barpo etilishi rejalashtirilgan. Bog‘ning maydoni 5,4 hektar bo‘lib, hududdagi mavjud bino va inshootlardan 5 tasi madaniy meros ro‘yxatiga olingan ob’ekt hisoblanadi. 1870 yillarda tashkil etilgan mazkur harbiy gospital hududida ko‘p yillik manzarali daraxtlar mavjud. Loyihaga ko‘ra, daraxtlar to‘liq saqlab qolinadi, bog‘ning asosiy qismini yashil maydon tashkil etadi. Yangi istirohat bog‘i loyihasini “L’art Du Design” tashkiloti tomonidan ishlab chiqildi.

Madaniy meros ro‘yxatidagi binolarga zarar yetkazilmagan holda muzey, kutubxona, kreativ to‘garaklar, robotatexnika, kibersport o‘yinlari tashkil etiladi, bolalar va o‘smirlar uchun bog‘ hududida pavilionlar, yopiq va ochiq attraksionlar, nuroniyalar maskani va nuroniyalar choyxonasi, turli sport va sog‘lomlashtirish maydonchalari – aholi uchun dam olish maskani tashkil etiladi.

Bundan tashqari, shu kunlarda Samarqand shahridan Urgut tumaniga temiryo‘l tarmog‘i tortish ishlari olib borilmoqda. Joriy yilning fevral oyidan boshlab ushbu temir yo‘l qurilishiga kirishilgan edi.

Uzunligi 56 kilometr bo‘lgan yangi tarmoq “Toshtemiryo‘lloyiha” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan bosh reja bo‘yicha zamonaviy muhandislik yechimlari hisobga olingan holda barpo etilyapti. Samarqand shahar hududidan boshlanuvchi yangi temiryo‘l tarmog‘i Jomboy tumanidagi “MAN” zavodi yaqinidan 4R-238 avtomobil yo‘lini kesib, Zarafshon daryosi bo‘ylab o‘tadi va ushbu daryo ustida barpo etiladigan ko‘prik orqali Urgut tumaniga boradi. Hozirda temiryo‘l o‘tadigan 55 kilometr temiryo‘l tarmog‘i tortish uchun qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, ikkita vokzal qurilishi boshlangan bo‘lib, birinchisi Urgut shahrida, ikkinchisi Urgutning Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh Jartepa hududida bo‘ladi.